TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



# TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- may holatiga ko'ra*
*(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

# KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2023 - yil 1 - may holatiga Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 94,5 mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 83,3 mingta).

## Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

*2023 - yil yanvar - aprel oylarida, birlikda*

### Yillar kesimida soni




### Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



47 — 6,8 %

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



501 — 4,1 %

Sanoat



397 — 5,6 %

Qurilish



2 172 — 7,5 %

Savdo



259 — 6,8 %

Tashish va saqlash



388 — 7,4 %

Yashash va ovqatlanish




364 — 8,0 %

Axborot va aloqa



107 — 5,3 %

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



1 413 — 4,7 %

Boshqa turlar

2023 - yil yanvar - aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2022 - yilning mos davri bilan solishtirilganda 322 taga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 745 | 6,7 % | Yakkasaroy tumani | 486 | 5,9 % |
| Chilonzor tumani | 645 | 5,6 % | Shayxontohur tumani | 475 | 5,3 % |
| Yunusobod tumani | 638 | 5,6 % | Uchtepa tumani | 360 | 4,6 % |
| Yashnobod tumani | 547 | 6,8 % | Sirg‘ali tumani | 337 | 6,5 % |
| Olmazor tumani | 533 | 5,8 % | Yangihayot tumani | 226 | 9,5 % |
| Mirobod tumani | 522 | 6,6 % | Bektemir tumani | 134 | 5,3 % |

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

### Yillar kesimida soni




### Faoliyat ko‘rsatayotganlarning ro‘yxatdan o‘tganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**689**



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**12 192**



Sanoat

**7 139**



Qurilish

**29 036**



Savdo

**3 834**



Tashish va saqlash

**5 228**



Yashash va ovqatlanish

**4 536**




Axborot va aloqa

**2 032**



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**29 822**



Boshqa turlar

2023 - yil 1 - may holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashki-lotlar soni 94 508 tani tashkil etib bunda yuqori ko‘rsatkichlarni savdo – 29 036 tani, sanoat – 12 192 tani, qurilish – 7 139 tani tashkil etadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Chilonzor tumani | 11 518 | Yashnobod tumani | 8 098 |
| Yunusobod tumani | 11 453 | Mirobod tumani | 7 966 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 11 171 | Uchtepa tumani | 7 848 |
| Olmazor tumani | 9 129 | Sirg‘ali tumani | 5 163 |
| Shayxontohur tumani | 9 023 | Bektemir tumani | 2 533 |
| Yakkasaroy tumani | 8 234 | Yangihayot tumani | 2 372 |

# Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

*2023 - yil yanvar - aprel oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

46
6,8 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

500
4,1 %

Sanoat

397
5,6 %

Qurilish

2 172
7,5 %

Savdo

259
6,8 %

Tashish va saqlash

388
7,4 %

Yashash va ovqatlanish

364
8,1 %


Axborot va aloqa

107
6,0 %

Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

1 259
6,1 %

Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023 - yil yanvar - aprel oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 5 492 tani tashkil qilmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mirzo Ulug'bek tumani | 720 | 7,3 % | Yakkasaroy tumani | 470 | 6,3 % |
| Chilonzor tumani | 628 | 6,1 % | Shayxontohur tumani | 462 | 5,8 % |
| Yunusobod tumani | 623 | 6,1 % | Uchtepa tumani | 351 | 4,9 % |
| Yashnobod tumani | 540 | 7,4 % | Sirg'ali tumani | 330 | 6,9 % |
| Olmazor tumani | 514 | 6,2 % | Yangihayot tumani | 214 | 10,0 % |
| Mirobod tumani | 506 | 7,2 % | Bektemir tumani | 134 | 5,7 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - may holatiga ko ‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Faoliyat ko‘rsatayotganlarning Ro‘yxatdan o‘tganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| | |
|---|---|
| 675 | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi |
| 12 158 | Sanoat |
| 7 129 | Qurilish |
| 29 030 | Savdo |
| 3 819 | Tashish va saqlash |
| 5 225 | Yashash va ovqatlanish |
| 4 488 | Axborot va aloqa |
| 1 794 | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish |
| 20 598 | Boshqa turlar |

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023 - yil 1- may holatiga 84,9 tani tashkil etmoqda. Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarning asosiy qismi: savdo – 34,2 foiz, sanoat – 14,3 foiz, qurilish – 8,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 6,1 foizni tashkil qilmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Chilonzor tumani | 10 272 | Yashnobod tumani | 7 298 |
| Yunusobod tumani | 10 164 | Uchtepa tumani | 7 220 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 9 877 | Mirobod tumani | 7 038 |
| Olmazor tumani | 8 310 | Sirg‘ali tumani | 4 797 |
| Shayxontohur tumani | 7 906 | Bektemir tumani | 2 369 |
| Yakkasaroy tumani | 7 515 | Yangihayot tumani | 2 150 |

# Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil yanvar - aprel oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

46

6,8 %



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

500

4,2 %



Sanoat

397

5,7 %



Qurilish

2 172

7,6 %



Savdo

259

6,9 %



Tashish va saqlash

388

7,5 %



Yashash va ovqatlanish

364

8,3 %




Axborot va aloqa

107

6,1 %



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

1 214

6,1 %



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2023 - yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022 - yilning mos davriga nisbatan 379 taga ko‘paydi.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 716 | 7,4 % | Yakkasaroy tumani | 464 | 6,3 % |
| Yunusobod tumani | 627 | 6,2 % | Shayxontohur tumani | 457 | 5,9 % |
| Chilonzor tumani | 617 | 6,2 % | Uchtepa tumani | 346 | 4,8 % |
| Yashnobod tumani | 536 | 7,5 % | Sirg‘ali tumani | 328 | 7,0 % |
| Olmazor tumani | 510 | 6,2 % | Yangihayot tumani | 212 | 10,1 % |
| Mirobod tumani | 501 | 7,3 % | Bektemir tumani | 133 | 5,7 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni




Faoliyat ko‘rsatayotganlarning ro‘yxatdan o‘tganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

675

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

11 985

Sanoat

7 018

Qurilish

28 677

Savdo

3 744

Tashish va saqlash

5 180

Yashash va ovqatlanish

4 390


Axborot va aloqa

1 741

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

19 923

Boshqa turlar

Tumanlar kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Chilonzor tumani (12,1 foiz), Yunusobod tuman (12,0 foiz), Mirzo Ulug‘bek tuman (11,6 foiz), Olmazor tuman (9,8 foiz) va Shayxontohur tuman (9,2 foiz) da faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari soning 50 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda. Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Chilonzor tumani | 10 105 | Uchtepa tumani | 7 163 |
| Yunusobod tumani | 9 966 | Yashnobod tumani | 7 150 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 9 679 | Mirobod tumani | 6 844 |
| Olmazor tumani | 8 198 | Sirg‘ali tumani | 4 711 |
| Shayxontohur tumani | 7 729 | Bektemir tumani | 2 322 |
| Yakkasaroy tumani | 7 357 | Yangihayot tumani | 2 109 |

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

### Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 98 |
| Shayxontohur tumani | 95 |
| Yunusobod tumani | 82 |
| Yashnobod tumani | 62 |
| Olmazor tumani | 61 |
| Yakkasaroy tumani | 55 |
| Chilonzor tumani | 48 |
| Mirobod tumani | 42 |
| Sergeli tumani | 42 |
| Uchtepa tumani | 40 |
| Bektemir tumani | 39 |
| Yangihayot tumani | 25 |




O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

### Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Olmazor tumani | 1 484 |
| Chilonzor tumani | 1 418 |
| Uchtepa tumani | 1 312 |
| Yunusobod tumani | 1 190 |
| Yshnobod tumani | 1 107 |
| Mirzo Ulug‘bek r tumani | 1 085 |
| Shayxontohur tumani | 1 020 |
| Yakkasaroy tumani | 966 |
| Sirg‘ali tumani | 845 |
| Mirobod tumani | 708 |
| Yangihayot tumani | 541 |
| Bektemir tumani | 516 |




Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 12,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 94,5 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yil ning mos davriga nisbatan o‘sish 75,7 foiz), 3,1 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘sish 80,1 foiz), 1,5 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘sish 73,5 foiz) va 0,9 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘sish 120,6 foiz) tashki etgan.



# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

*2023 - yil 1 - may holatiga ko'ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Mirzo Ulug'bek tumani | 936 |
| Chilonzor tumani | 869 |
| Yunusobod tumani | 865 |
| Yashnobod tumani | 757 |
| Yakkasaroy tumani | 724 |
| Mirobod tumani | 626 |
| Shayxontohur tumani | 543 |
| Olmazor tumani | 523 |
| Uchtepa tumani | 451 |
| Sirg'ali tumani | 432 |
| Yangihayot tumani | 235 |
| Bektemir tumani | 178 |




O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 48,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 76,4 foizga oshgan;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,5 foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 42,3 foiz ulushni va 96,4 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.



**691** Fuqarolik obyektlarini qurish

**3 023** Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



**3 425** Bino va inshootlar qurish

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Chilonzor tumani | 3 657 |
| Olmazor tumani | 3 314 |
| Uchtepa tumani | 3 172 |
| Yunusobod tumani | 3 064 |
| Mirzo-Ulug‘bek tumani | 2 912 |
| Shayxontohur tumani | 2 696 |
| Yashnobod tumani | 2 561 |
| Yakkasaroy tumani | 2 178 |
| Mirobod tumani | 1 971 |
| Sirg‘ali tumani | 1 835 |
| Bektemir tumani | 977 |
| Yangihayot tumani | 699 |




Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 98,7 foizi yoki 29,0 mingtasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 44,4 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 83,3 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 48,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 92,6 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 7,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 91,9 foizni tashkil etdi.

**2 140**
Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash

**14 018**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**12 878**
Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Yunusobod tumani | 708 |
| Chilonzor tumani | 627 |
| Yakkasaroy tumani | 578 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 562 |
| Mirobod tumani | 515 |
| Olmazor tumani | 490 |
| Shayxontohur tumani | 459 |
| Yashnobod tumani | 458 |
| Uchtepa tumani | 391 |
| Sirg‘ali tumani | 241 |
| Bektemir tumani | 119 |
| Yangihayot tumani | 80 |




2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2022 - yilning mos davriga nisbatan 72,6 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,0 foiz ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq–ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 86,0 foiz ulushini tashkil etdi.

**730** — Yashash bo‘yicha xizmatlar

**4 498** — Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar





# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 780 |
| Yunusobod tumani | 654 |
| Mirobod tumani | 550 |
| Chilonzor tumani | 526 |
| Yakkasaroy tumani | 483 |
| Shayxontohur tumani | 468 |
| Yashnobod tumani | 331 |
| Olmazor tumani | 314 |
| Uchtepa tumani | 194 |
| Sirg‘ali tumani | 131 |
| Yangihayot tumani | 60 |
| Bektemir tumani | 45 |




2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo‘nalishlarida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 9,2 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022 – yilning mos davriga nisbatan 32,0 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo‘yicha faoliyat va teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo‘nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 11,6 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022 – yilning mos davriga nisbatan 82,9 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko‘rsatish yo‘nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 62,5 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 143,1 foizni tashkil etdi.



*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

## Tumanlar kesimida

| | |
|---|---|
| Yunusobod tumani | 324 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 285 |
| Chilonzor tumani | 249 |
| Olmazor tumani | 234 |
| Shayxontohur tumani | 196 |
| Uchtepa tumani | 167 |
| Yashnobod tumani | 167 |
| Mirobod tumani | 125 |
| Yakkasaroy tumani | 112 |
| Sirg‘ali tumani | 88 |
| Yangihayot tumani | 57 |
| Bektemir tumani | 28 |




Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 1 773 ta yoki 88,1 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

96,6 foiz korxonalar sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’ati 2022 - yilning mos davriga nisbatan 98,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 1,7 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati 94,4 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 75,0 foizni tashkil etdi;



# Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

**Tumanlar kesimida**

| | |
|---|---|
| Chilonzor tumani | 460 |
| Mirobod tumani | 446 |
| Yunusobod tumani | 429 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 418 |
| Yakkasaroy tumani | 412 |
| Yashnobod tumani | 356 |
| Olmazor tumani | 328 |
| Shayxontohur tumani | 307 |
| Uchtepa tumani | 243 |
| Sirg‘ali tumani | 239 |
| Bektemir tumani | 120 |
| Yangihayot tumani | 76 |




2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami Toshkent shahridagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 4,0 foiz ulushini tashkil etdi.

2022 - yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o‘sish sur’ati 87,3 foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishining o‘sish sur’ati 96,2 foizni; pochta va kuryerlik yo‘nalishi 75,3 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 5 taga kamaygan;

suv transporti yo‘nalishidagi korxonalar soni o‘zgarishsiz qolgan.

| Suv transporti | Havo transporti | Pochta va kuryerlik faoliyati | Ombor xo‘jaligi va yordamchi transport faoliyati | Quruqlikdagi va quvur transporti |
|---|---|---|---|---|
| 2 | 43 | 343 | 1 632 | 1 814 |

## Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

# Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot

*2023 - yil yanvar - aprel oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

44
7,3 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

453
4,5 %

Sanoat

390
5,9 %

Qurilish

1 998
8,2 %

Savdo

250
7,2 %

Tashish va saqlash

341
8,4 %

Yashash va ovqatlanish

358
8,8 %


Axborot va aloqa

98
6,5 %

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish

1 211
6,8 %

Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mirzo Ulug'bek tumani | 688 | 7,9 % | Yakkasaroy tumani | 451 | 6,6 % |
| Yunusobod tumani | 589 | 6,7 % | Shayxontohur tumani | 427 | 6,5 % |
| Chilonzor tumani | 575 | 6,6 % | Uchtepa tumani | 322 | 5,7 % |
| Yashnobod tumani | 508 | 8,0 % | Sirg'ali tumani | 299 | 7,2 % |
| Mirobod tumani | 482 | 7,7 % | Yangihayot tumani | 193 | 10,7 % |
| Olmazor tumani | 481 | 7,1 % | Bektemir tumani | 128 | 6,6 % |

*2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**602**



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

**10 020**



Sanoat

**6 644**



Qurilish

**24 279**



Savdo

**3 450**



Tashish va saqlash

**4 071**



Yashash va ovqatlanish

**4 086**




Axborot va aloqa

**1 504**



Sog'liqni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

**17 924**



Boshqa turlar

2023 - yil 1 - may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 84,9 mingta tijorat korxona va tashkilotlarining 72,5 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Yunusobod tumani | 8 826 | Yashnobod tumani | 6 335 |
| Chilonzor tumani | 8 735 | Mirobod tumani | 6 264 |
| Mirzo Ulug'bek tumani | 8 703 | Uchtepa tumani | 5 661 |
| Olmazor tumani | 6 799 | Sirg'ali tumani | 4 127 |
| Yakkasaroy tumani | 6 782 | Bektemir tumani | 1 941 |
| Shayxontohur tumani | 6 595 | Yangihayot tumani | 1 812 |

# Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil yanvar - aprel oylarida, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

124
3,2 %

Savdo

19
1,6 %

Sanoat

4
1,1 %

Qurilish

6
2,9 %

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

8
2,6 %

Tashish va saqlash

12
2,1 %

Yashash va ovqatlanish

5
1,8 %

Axborot va aloqa

26
1,4 %

Boshqa turlar

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Chilonzor tumani | 43 | 3,7 % | Sirg‘ali tumani | 15 | 3,2 % |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 24 | 2,9 % | Yashnobod tumani | 14 | 2,2 % |
| Shayxontohur tumani | 22 | 2,5 % | Mirobod tumani | 12 | 2,4 % |
| Uchtepa tumani | 20 | 1,7 % | Yakkasaroy tumani | 11 | 2,1 % |
| Olmazor tumani | 18 | 1,7 % | Yangihayot tumani | 5 | 2,6 % |
| Yunusobod tumani | 17 | 1,9 % | Bektemir tumani | 3 | 1,0 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - may holatiga ko ‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

29

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

1 181

Sanoat

365

Qurilish

3 851

Savdo

302

Tashish va saqlash

573

Yashash va ovqatlanish

283


Axborot va aloqa

207

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

1 801

Boshqa turlar

2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni 8,5 mingtani tashkil qiladi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Chilonzor tumani | 1 167 | Yashnobod tumani | 629 |
| Uchtepa tumani | 1 157 | Yakkasaroy tumani | 518 |
| Olmazor tumani | 1 071 | Mirobod tumani | 507 |
| Yunusobod tumani | 881 | Sirg‘ali tumani | 473 |
| Shayxontohur tumani | 866 | Bektemir tumani | 310 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 824 | Yangihayot tumani | 189 |

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil yanvar-aprel oylarida, birlikda*




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Faoliyat turi | Soni | Foiz |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 2 | 5,4 % |
| Sanoat | 27 | 3,2 % |
| Qurilish | 2 | 6,1 % |
| Savdo | 50 | 5,9 % |
| Tashish va saqlash | 1 | 3,6 % |
| Yashash va ovqatlanish | 34 | 6,0 % |
| Axborot va aloqa | 1 | 2,6 % |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 3 | 4,5 % |
| Boshqa turlar | 18 | 4,1 % |












**Oilaviy korxona** – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Yashnobod tumani | 18 | 6,7 % | Shayxontohur tumani | 12 | 3,5 % |
| Yunusobod tumani | 16 | 4,7 % | Chilonzor tumani | 10 | 3,9 % |
| Yangihayot tumani | 16 | 11,3 % | Uchtepa tumani | 9 | 2,4 % |
| Olmazor tumani | 14 | 3,7 % | Mirzo Ulug’bek tumani | 7 | 3,2 % |
| Sirg’ali tumani | 14 | 8,1 % | Yakkasaroy tumani | 7 | 4,5 % |
| Mirobod tumani | 12 | 8,2 % | Bektemir tumani | 3 | 3,1 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni — Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**37**

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**832**

Sanoat

**33**

Qurilish

**841**

Savdo

**28**

Tashish va saqlash

**563**

Yashash va ovqatlanish

**39**


Axborot va aloqa

**66**

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**444**

Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra 2022 - yilning mos davriga nisbatan 713 taga kamaygan.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Olmazor tumani | 375 | Mirzo Ulug‘bek tumani | 217 |
| Uchtepa tumani | 370 | Sirg‘ali tumani | 173 |
| Shayxontohur tumani | 343 | Yakkasaroy tumani | 157 |
| Yunusobod tumani | 339 | Mirobod tumani | 146 |
| Yashnobod tumani | 269 | Yangihayot tumani | 142 |
| Chilonzor tumani | 255 | Bektemir tumani | 97 |

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023 - yil yanvar - aprel oylarida, birlikda*

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

| Soni | Foiz | Faoliyat turi |
|---|---|---|
| 4 | 7,3 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi |
| 87 | 6,8 % | Sanoat |
| 67 | 10,2 % | Qurilish |
| 295 | 10,2 % | Savdo |
| 32 | 10,2 % | Tashish va saqlash |
| 34 | 9,9 % | Yashash va ovqatlanish |
| 110 | 15,1 % | Axborot va aloqa |
| 11 | 9,7 % | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish |
| 157 | 8,5 % | Boshqa turlar |












**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

## Hududlar kesimida

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Mirobod tumani | 159 | 11,0 % | Shayxontohur tumani | 51 | 8,7 % |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 136 | 11,6 % | Sirg‘ali tumani | 39 | 11,7 % |
| Yakkasaroy tumani | 99 | 8,0 % | Olmazor tumani | 38 | 9,1 % |
| Yunusobod tumani | 84 | 8,5 % | Bektemir tumani | 19 | 10,2 % |
| Chilonzor tumani | 72 | 9,4 % | Yangihayot tumani | 18 | 12,8 % |
| Yashnobod tumani | 70 | 9,6 % | Uchtepa tumani | 12 | 5,0 % |

# Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

Yillar kesimida soni | Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

**55**



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

**1 275**



Sanoat

**655**



Qurilish

**2 903**



Savdo

**313**



Tashish va saqlash

**343**



Yashash va ovqatlanish

**730**




Axborot va aloqa

**113**



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**1 849**



Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 2,0 barobarga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 2 018 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 13,2 foiz), Xitoy (ulushi 10,7 foiz), Qozog‘iston (ulushi 9,1 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 5,4 foiz) davlatlari ham yetakchilardan hisoblanadi.

## Hududlar kesimida

| | | | |
|---|---|---|---|
| Mirobod tumani | 1 449 | Shayxontohur tumani | 584 |
| Yakkasaroy tumani | 1 233 | Olmazor tumani | 416 |
| Mirzo Ulug‘bek tumani | 1 168 | Sirg‘ali tumani | 333 |
| Yunusobod tumani | 987 | Uchtepa tumani | 241 |
| Chilonzor tumani | 766 | Bektemir tumani | 187 |
| Yashnobod tumani | 731 | Yangihayot tumani | 141 |

# Davlatlar kesimida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2023 - yil yanvar - aprel oylarida, birlikda*

| | |
|---|---|
| **Rossiya Federatsiyasi** | **280** |
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **109** |
| **Armaniston Respublikasi** | **4** |
| **Buyuk Britaniya** | **6** |
| **Qozog‘iston Respublikasi** | **65** |
| **Turkiya Respublikasi** | **60** |

Toshkent shahrining o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

# Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot

*2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra, birlikda*

| | |
|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 2 018 |
| Qozog‘iston Respublikasi | 754 |
| Turkiya Respublikasi | 1 086 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 882 |
| Afg‘oniston | 233 |
| Janubiy Koreya Respublikasi | 447 |
| Eron Islom Respublikasi | 130 |
| Buyuk Britaniya | 209 |
| Belorussiya Respublikasi | 145 |
| Hindiston Respublikasi | 213 |
| Boshqa Davlatlar | 2 119 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 2 678 tasi qo‘shma korxonalar, 5 558 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot

*2023 - yil 1 - may holatiga ko'ra, birlikda*

| xorijiy korxonalar | | qo'shma korxonalar |
|---|---|---|
| 1 054 | Mirobod | 395 |
| 891 | Yakkasaroy | 342 |
| 795 | Mirzo Ulug'bek | 373 |
| 674 | Yunusobod | 313 |
| 513 | Chilonzor | 253 |
| 469 | Yashnobod | 262 |
| 368 | Shayhontohur | 216 |
| 229 | Olmazor | 187 |
| 224 | Sirg'ali | 109 |
| 160 | Uchtepa | 81 |
| 102 | Bektemir | 85 |
| 79 | Yangihayot | 62 |

# Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot

*2023 - yil 1 - aprel holatiga ko‘ra, birlikda*

| | xorijiy korxonalar | qo‘shma korxonalar |
|---|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 31 | 24 |
| Sanoat | 675 | 600 |
| Qurilish | 451 | 204 |
| Savdo | 2 152 | 751 |
| Tashish va saqlash | 203 | 110 |
| Yashash va ovqatlanish | 236 | 107 |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish | 65 | 48 |
| Axborot va aloqa | 536 | 194 |
| Boshqa turlar | 1 209 | 640 |

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 - yil 24 - avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275 - son qarorining 1 - ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2023 - yil 1 - may holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.








# Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz va Toshkent shahar statistika boshqarmasining www.toshstat.uz rasmiy saytidan (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkin.

Statistik registrlarni yuritish bo‘limi
Tel.:71 203 88 31